


## Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-martida 700 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,8 % kam demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida (24,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (21,6 %), sanoat sohasida (19,9 %), qurilish tarmog'ida (16,3 %), yashash va ovqatlanishda (5,4 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, ( 3,6%) tashkil etilgan.

### 2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 568,7 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 17,4 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 101,3 %ni tashkil qildi;



– 122,4 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 15,2 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 156,0 %ni tashkil qildi;



– 549,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 86,0 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 125,4 % ni tashkil qildi;



– 1078,9 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyatda jami xizmatlar xajmining 71,3 %), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 101,4 % ni tashkil qildi;



– chakana savdo tovar aylanmasi 2100,9 mlrd.so`mni tashkil qilib, o`shish surati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 foizni tashkil etdi;


– tashqi savdo aylanmasi yanvar-mart oylarida 148,6 mln.AQSH dollar, shu jumladan eksport 85,7 mln.AQSH dollari va import 62,9 mln.AQSH dollarini tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 123,0 foizga o'sishga olib keldi.




- avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,2 %ga (viloyatda jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 87,5 %i) ko'payishi ta'minlandi;
- yo'lovchi aylanmasining esa 2,5 % ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 95,3 % ) ko'payishi ta'minlandi;

Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (209,1 mlrd.so'm), Shahrisabz (42,7 mlrd.so'm) va Kitob (47,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



## 2018 yil yanvar-martda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




## 2018 yil yanvar-martda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (360,0 mlrd.so'm), Koson (190,4 mlrd.so'm) va Chiroqchi (167,2 mlrd.so'm) hududlari hissasiga to'g'ri keladi.

### 2018 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Qarshi shahri (307,4 mlrd.so'm), Shaxrisabz (96,3 mlrd.so'm) va Koson (82,2 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo`yicha ulushi  
(% da)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>
Qashqadaryo viloyati	<b>17,4</b>	<b>86,0</b>	<b>71,3</b>
Qarshi sh	54,9	84,7	45,4
Shaxrisabz sh	55,9	86,2	92,8
tumanlar			
G'uzor	2,1	96,5	83,8
Dehqonobod	10,8	100,0	98,0
Qamashi	33,9	100,0	99,2
Qarshi	22,3	99,4	95,8
Koson	19,5	96,6	98,4
Kitob	100,0	100,0	97,1
Mirishkor	16,2	100,0	98,6
Muborak	1,3	73,0	55,2
Nishon	3,8	94,0	98,8
Kasbi	12,9	99,8	92,2
Chiroqchi	69,9	100,1	99,6
Shaxrisabz	68,5	97,3	90,3
Yakkabog'	72,8	99,8	98,1

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kitob (100,0%), Yakkabog (72,8 %), va Chiroqchi (69,9 %) tumanlari tashkil etadi,

Xizmatlar sohasida Chiroqchi (99,6 %), Qamashi (99,2 %), va Nishon (98,8 %), Mirishkor (98,6 %), Koson (98,4 %), Yakkabog' (98,1 %), tumanlari tashkil etadi,

Qurilishda Qarshi shahar (84,7 %), Qarshi (99,4 %), Shiroqchi (100,1 %) Yakkabog' (99,8 %) tumanlari tashkil etadi,

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil I-chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi, Unda 51 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi,

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, respondentlarning 43,1 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 45,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda va savdo sohasida – 62,5 % va 46,2 %, xizmatlar sohasida – 80,0 % va 10,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 18,2 % va 72,7 %, sanoatda – 11,1 % va 66,7 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi,


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 12,5 %, savdoda – 7,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 9,1 %, xizmatlarda – 10,0 % sanoatda – 22,2 %, ni tashkil qildi,

### **Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil I-chorak uchun**

**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 11,0 % sanoat korxonalari, 35,4 % – savdo, 23,2 % – xizmatlar, 90,5 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 9,2 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda,**



## Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin,